KAMBAG‘ALLIKNI ANIQLASHDA KO‘P O‘LCHOVLI INDIKATORLAR TIZIMI: O‘ZBEKISTONDA YANGI YONDASHUVLARNING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Ismailov Isomiddin Saidobbosovich
Kambag’allik ko’rsatkichlarini ilmiy aniqlash,
tarkibi va dinamikasini taxlil qilish
boshqarmasi bosh ilmiy xodim

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kambag‘allikni aniqlashning zamonaviy ilmiy-metodik yondashuvlari, xususan, kambag‘allikni faqat aholining daromadlari asosida emas, balki bir nechta o‘zaro bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy va demografik indikatorlar majmuasi orqali baholash masalalari tadqiq etilgan. Kambag‘allikning ko‘p o‘lchovli tabiati, uning tarkibiy qismlari va aholining turli ijtimoiy guruhlarida namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan.

O‘zbekiston sharoitida ishlab chiqilgan ko‘p o‘lchovli kambag‘allikning pilot modeli, uning asosiy yo‘nalishlari va indikatorlari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatda kambag‘allik darajasining so‘nggi yillardagi o‘zgarishi bilan bir qatorda kambag‘allikning ichki tarkibini, unga ta’sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillarni hamda kambag‘allikka tushish xavfi yuqori bo‘lgan aholi guruhlarini aniqlash zarurati asoslangan.

2026-yil 3-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ehtiyojmand aholini aniqlashda daromad bilan bir qatorda surunkali kasallik, nogironlik, ko‘p bolalilik va oila a’zosining xorijda mehnat qilishi kabi omillarni hisobga oluvchi ko‘p o‘lchovli baholash tizimiga o‘tish bo‘yicha belgilangan vazifalar mazkur tadqiqotning amaliy dolzarbligini yanada oshiradi.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, ko‘p o‘lchovli kambag‘allik, kambag‘allikni baholash, indikatorlar tizimi, kambag‘allik indeksi, daromad, bandlik, ijtimoiy himoya, ijtimoiy reyestr.

СИСТЕМА МНОГОМЕРНЫХ ИНДИКАТОРОВ В ОПРЕДЕЛЕНИИ БЕДНОСТИ: НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НОВЫХ ПОДХОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В статье исследованы современные научно-методические подходы к определению бедности, в частности вопросы оценки бедности не только на основе доходов населения, но и посредством совокупности нескольких взаимосвязанных социально-экономических и демографических индикаторов. Проанализированы многомерный характер бедности, ее структурные компоненты, а также особенности ее проявления среди различных социальных групп населения.

Рассмотрена разработанная в условиях Узбекистана пилотная модель многомерной бедности, проанализированы ее основные направления и индикаторы. Наряду с изменением уровня бедности в стране за последние годы обоснована необходимость определения внутренней структуры бедности, социально-демографических факторов,

влияющих на нее, а также групп населения, подвергающихся повышенному риску попадания в бедность.

Задачи, определенные на видеоселекторном совещании под председательством Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева 3 сентября 2026 года, предусматривающие переход к системе многомерной оценки нуждаемости населения с учетом наряду с доходами таких факторов, как хронические заболевания, инвалидность, многодетность и осуществление трудовой деятельности одним из членов семьи за рубежом, повышают практическую актуальность данного исследования.

Ключевые слова: бедность, многомерная бедность, оценка бедности, система индикаторов, индекс бедности, доход, занятость, социальная защита, социальный реестр.

A MULTIDIMENSIONAL INDICATOR SYSTEM FOR IDENTIFYING POVERTY: SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF NEW APPROACHES IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article examines modern scientific and methodological approaches to poverty identification, with particular emphasis on assessing poverty not only on the basis of household income but also through a set of interrelated socioeconomic and demographic indicators. The multidimensional nature of poverty, its structural components, and the specific ways in which poverty manifests itself across different social groups are analyzed.

The article examines a pilot multidimensional poverty model developed for the conditions of Uzbekistan and analyzes its key dimensions and indicators. Alongside changes in the poverty rate in the country in recent years, the study substantiates the need to identify the internal structure of poverty, the socioeconomic and demographic factors affecting it, and population groups that are at a higher risk of falling into poverty.

The tasks outlined at the videoconference meeting chaired by the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, on September 3, 2026, concerning the transition to a multidimensional assessment system for identifying households in need—taking into account, in addition to income, such factors as chronic illness, disability, having many children, and a family member working abroad—further increase the practical relevance of this study.

Keywords: poverty, multidimensional poverty, poverty assessment, indicator system, poverty index, income, employment, social protection, social registry.

KIRISH

Kambag‘allik insoniyat taraqqiyotining iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab hodisalardan biri hisoblanadi. Uzoq vaqt davomida kambag‘allikni aniqlashda asosiy e’tibor shaxs yoki uy xo‘jaligining daromadi, iste’mol xarajatlari yoki muayyan kambag‘allik chegarasidan past daromadga ega bo‘lishiga qaratilgan. Mazkur yondashuv aholining moddiy farovonligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lsa-da, kambag‘allikning barcha shakllarini to‘liq ifodalash imkonini bermaydi.

Bugungi kunda mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda aholining daromadlarini oshirish, bandligini

ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, mahallabay ishlash tizimini kuchaytirish hamda ehtiyojmand oilalarga manzilli yordam ko‘rsatishga qaratilgan kompleks mexanizmlar shakllantirildi.

Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2022-yilda 14,1 foizga, 2023-yilda 11 foizga, 2024-yilda 8,9 foizga va 2025-yilda 5,8 foizga qadar pasaygan.[1] Mazkur ko‘rsatkichlar mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish borasida sezilarli natijalarga erishilganini ko‘rsatadi. Biroq kambag‘allik darajasining pasayishi uning tarkibiy tuzilishini chuqur o‘rganish zaruratini kamaytirmaydi. Aksincha, kambag‘allik darajasi qisqarib borayotgan sharoitda kambag‘allikning qaysi guruhlarda saqlanib qolayotgani, unga qanday omillar sabab bo‘layotgani va ayrim oilalarning kambag‘allikka qayta tushish xavfi qanday ekanini aniqlash tobora muhimlashadi.

Aynan shu jihat 2026-yil 3-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida ham alohida ta’kidlandi. Yig‘ilishda mamlakatda yil boshida 5,8 foizni tashkil etgan kambag‘allik darajasi 3,9 foizgacha tushgani, ehtiyojmand aholi soni esa 2,2 million nafardan 1,5 million nafargacha kamaygani qayd etildi.[2]

Shu bilan birga, hududlar va aholining turli guruhlari bo‘yicha natijalar bir xil emasligi ko‘rsatildi. Masalan, so‘nggi uch yil davomida mahallalardagi tadbirkorlik loyihalariga katta miqdorda resurs yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, bir xil hajmdagi moliyaviy resurs olgan hududlarda kambag‘allikni qisqartirish samaradorligi turlicha bo‘lgani qayd etildi. Bu holat kambag‘allikni baholashda faqat ajratilgan mablag‘ yoki oilaning joriy daromadini emas, balki hududning iqtisodiy salohiyati, bandlik imkoniyatlari, inson kapitali va oilaning ijtimoiy-demografik xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Videoselektor yig‘ilishida ehtiyojmand aholini aniqlashning yangi mexanizmlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, Ijtimoiy himoya milliy agentligiga ehtiyojmand aholini ijtimoiy reyestrga kiritish tizimini qayta ko‘rib chiqish vazifasi yuklatilib, bunda aholi daromadi bilan bir qatorda surunkali kasallik, nogironlik, ko‘p bolalilik hamda oila a’zosining xorijda mehnat qilishi kabi omillarni qamrab oladigan ko‘p o‘lchovli baholash tizimiga o‘tish belgilandi.

Mazkur yondashuv kambag‘allikni aniqlashning metodologik mohiyatini o‘zgartirishga qaratilgan muhim qadam sifatida baholanishi mumkin. Chunki bunda oilaning kambag‘allik holatini aniqlashda uning faqat bugungi daromadi emas, balki kambag‘allikni yuzaga keltiruvchi va chuqurlashtiruvchi omillar majmuasi hisobga olinadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni o‘lchashning keyingi bosqichida asosiy ilmiy savol “mamlakatda qancha kambag‘al aholi mavjud?” degan savoldan tashqari, “kambag‘allik qanday omillar ta’sirida shakllanmoqda, uning tarkibi qanday va qaysi guruhlar ko‘proq mahrumlikka duch kelmoqda?” degan savollarga ham javob berishdan iborat bo‘lishi lozim.

[1]Manba: https://Siat.stat.uz

[2] O‘z.R.Prezidentining 03.09.2026 yil o‘tkazgan “Mahallada aholi bandligi va daromadini oshirish hamda kambagallikni qisqartirish bo‘yicha yangi tizimni joriy etish to‘g‘risida”gi videoselektor anjumanidagi nutqidan

Tadqiqot muammosi. Kambag‘allikni faqat monetar mezonlar orqali aniqlash aholining turli ehtiyojlari va mahrumliklarini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston sharoitida kambag‘allikni aniqlash uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlarni ijtimoiy, demografik va infratuzilmaviy indikatorlar bilan integratsiyalashgan holda baholash zarur. Bu yerda maqolamizning asosiy ilmiy muammosi quyidagicha belgilanadi: Mavjud kambag‘allik ko‘rsatkichlari aholining real ijtimoiy-iqtisodiy holatini qay darajada to‘liq aks ettiradi va kambag‘allikni aniqlashda ko‘p o‘lchovli indikatorlar tizimini O‘zbekiston sharoitiga qanday metodik asosda moslashtirish mumkin?

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va baholashda ko‘p o‘lchovli indikatorlar tizimining ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish hamda kambag‘allikning turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar bo‘yicha tarkibini aniqlash imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun kambag‘allik tushunchasining zamonaviy nazariy yondashuvlari o‘rganiladi, xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indekslari tahlil qilinadi, O‘zbekistonning mavjud milliy tajribasi baholanadi hamda mamlakat sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan indikatorlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Maqolaning ilmiy yangiligi kambag‘allikni baholashni faqat monetar mezonlar bilan cheklamasdan, daromad, bandlik, sog‘liq, ta’lim, uy-joy va infratuzilma, oilaning demografik tarkibi hamda ijtimoiy himoyaga bo‘lgan ehtiyojini yagona indikatorlar tizimida baholash imkoniyatlarini asoslash bilan belgilanadi. Shuningdek, kambag‘allikni aniqlashda “kambag‘allik fakti” bilan “kambag‘allik xavfi”ni farqlash taklif etiladi. Bu yondashuv orqali bugungi kunda kambag‘al bo‘lmagan, biroq nogironlik, surunkali kasallik, ko‘p bolalilik, ishsizlik yoki boshqa omillar sababli kambag‘allikka tushish ehtimoli yuqori bo‘lgan oilalarni ham oldindan aniqlash imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag‘allikni o‘rganish iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, inson taraqqiyoti va statistik o‘lchash metodologiyasining kesishgan nuqtasida shakllangan ko‘p qirrali ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur tushunchaning murakkabligi kambag‘allikni faqat moddiy resurslarning yetishmasligi bilan izohlash imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kambag‘allik insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlar, resurslar va asosiy ehtiyojlardan mahrum bo‘lish holati sifatida kengroq talqin qilinadi.

Kambag‘allikni an’anaviy iqtisodiy nuqtayi nazardan o‘rganishda asosiy e’tibor daromad va iste’molga qaratilgan. Bunda shaxs yoki uy xo‘jaligining real daromadi yoxud iste’mol xarajatlari ma’lum kambag‘allik chegarasi bilan taqqoslanadi. Mazkur yondashuv kambag‘allikning monetar ko‘lamini aniqlash uchun muhim statistik vosita bo‘lsa-da, inson farovonligining barcha jihatlarini qamrab olish imkoniyatiga ega emas. UNDP ham kambag‘allikni faqat daromad yetishmasligi bilan chegaralash insonlar duch kelayotgan bir-biri bilan bog‘liq mahrumliklarni to‘liq ifodalamaydi, deb ta’kidlaydi.

Kambag‘allik tushunchasini kengroq mazmunda talqin qilishda hind iqtisodchisi va Nobel mukofoti laureati Amartya Senning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Senning “capability approach”, ya’ni insonning imkoniyatlari yondashuviga ko‘ra, inson farovonligini faqat uning

egalik qilayotgan moddiy resurslari orqali baholash yetarli emas. Muhim jihat insonning mavjud resurslardan foydalanib, o‘zi uchun qadrli bo‘lgan hayot tarzini amalga oshirish imkoniyatidir. Shu sababli kambag‘allikni insonning muhim “qobiliyatlar” va funksiyalarni amalga oshirish imkoniyatlaridan mahrumligi sifatida ko‘rish mumkin. Aynan ushbu nazariy yondashuv keyinchalik ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni o‘lchash konsepsiyasining rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. UNDPning ko‘p o‘lchovli kambag‘allik metodologiyasi ham kambag‘allikni insonlarning real hayotidagi bir-biri bilan kesishuvchi mahrumliklar orqali baholash zarurligini Senning ushbu konsepsiyasi bilan bog‘laydi.[3]

Mazkur metodologiyaning yana bir muhim jihati kambag‘allikni agregat ko‘rsatkich sifatida baholash bilan birga, uning tarkibini ham tahlil qilish imkoniyatidir. Ya’ni indeks kambag‘allikning umumiy darajasini ko‘rsatish bilan cheklanmay, qaysi indikatorlar yoki o‘lchovlar kambag‘allikning shakllanishiga ko‘proq hissa qo‘shayotganini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi nafaqat statistik ko‘rsatkich, balki davlat ijtimoiy siyosatini manzilli shakllantirish vositasi sifatida ham qaraladi.

Ko‘p o‘lchovli yondashuvning xalqaro ahamiyati Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan ham chambarchas bog‘liq. Xususan, Barqaror rivojlanish maqsadlarining birinchi maqsadi kambag‘allikni barcha shakl va ko‘rinishlarida tugatishga qaratilgan. Shu jihatdan milliy ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksini ishlab chiqish xalqaro statistik monitoring tizimiga ham mos keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini kambag‘allikni birgina daromad yoki iste’mol xarajatlari orqali emas, balki uy xo‘jaligining turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bo‘yicha yuzaga keladigan mahrumliklarini kompleks baholashga asoslangan ko‘p o‘lchovli yondashuv tashkil etadi. Tadqiqotda kambag‘allik insonning munosib turmush kechirishi uchun zarur bo‘lgan resurs va imkoniyatlarning yetishmasligi bilan bir qatorda, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, uy-joy va infratuzilma hamda ijtimoiy himoyadan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi bilan tavsiflanadigan holat sifatida qaraladi.

Tadqiqotning metodik konsepsiyasiga ko‘ra, ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni baholash jarayoni uchta ketma-ket bosqichdan tashkil topadi: avvalo kambag‘allikni tavsiflovchi asosiy o‘lchovlar va indikatorlar aniqlanadi, keyinchalik har bir indikator bo‘yicha mahrumlik chegarasi belgilanadi, yakuniy bosqichda esa alohida indikatorlardagi mahrumliklar umumlashtirilib, uy xo‘jaligining ko‘p o‘lchovli kambag‘allik holati aniqlanadi.

Indikatorlarni tanlashning ilmiy mezonlari. Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksini shakllantirishda indikatorlarni to‘g‘ri tanlash indeksning ilmiy asoslanganligi va amaliy qiymatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli indikatorlarni tanlashda ularning kambag‘allik mazmunini aks ettirishi, statistik jihatdan o‘lchanishi, ma’lumotlarning muntazam shakllantirilishi va davlat ijtimoiy siyosati uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi asosiy mezonlar sifatida qabul qilinadi.

[3] United Nations Development Programme Uzbekistan. (2024). Infographics: Key Figures on Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index 2023.

TADQIQOT NATIJALARI

Hududiy natijalardagi tafovutlar kambag‘allikni aniqlash va unga qarshi siyosatni ishlab chiqishda faqat moliyaviy resurslar hajmini emas, balki ushbu resurslardan foydalanish samaradorligi, mahalliy mehnat bozori, inson kapitali, infratuzilma va oilalarning ijtimoiy-demografik holatini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Jumladan, 2026-yil 3-sentabrdagi yig‘ilishda Sharof Rashidov va Qarshi tumanlariga 2,3 trillion so‘mdan kredit resurslari ajratilgani, biroq birinchi hududda ushbu mablag‘lar hisobidan 30 ming nafar aholi kambag‘allikdan chiqarilgan bo‘lsa, ikkinchi hududda 13 ming nafar ehtiyojmand aholining sharoiti yaxshilangani qayd etilgan.[4]

Mazkur natija kambag‘allikni qisqartirish samaradorligini baholashda “ajratilgan mablag‘ miqdori” kabi input ko‘rsatkichlari bilan cheklanib qolmasdan, ularning aholining real ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta’sirini ifodalovchi natijaviy indikatorlardan foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, bir xil miqdordagi moliyaviy resurs turli hududlarda turlicha ijtimoiy natija berishi mumkin. Bu esa kambag‘allikni hududiy va oilaviy kesimda ko‘p omilli baholash zaruratini kuchaytiradi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi O‘zbekistonda monetar kambag‘allik ko‘rsatkichlari bilan ko‘p o‘lchovli kambag‘allik o‘rtasida metodologik farq mavjudligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonning milliy pilot ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi doirasida o‘tkazilgan tadqiqotda aholining qariyb 18,4 foizi, ya’ni 4,2 millionga yaqin kishi bir vaqtning o‘zida bir nechta sohada mahrumliklarni boshdan kechirayotgani aniqlangan. Mazkur baholashda kambag‘allik chegarasi sifatida vaznlangan indikatorlarning kamida 34 foizida mahrumlik mavjudligi mezoni qo‘llangan.[5]

Ushbu natija monetar kambag‘allik darajasi bilan ko‘p o‘lchovli kambag‘allik ko‘rsatkichi o‘rtasidagi farqni ilmiy jihatdan alohida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ya’ni, aholining daromadi belgilangan kambag‘allik chegarasidan yuqorida bo‘lishi uning barcha asosiy ehtiyojlari qondirilganligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Aksincha, ayrim uy xo‘jaliklarida daromad nisbatan yetarli bo‘lsa-da, sanitariya, bank xizmatlaridan foydalanish, ta’lim, uy-joy yoki bandlik bilan bog‘liq mahrumliklar bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lishi mumkin.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash tizimi bosqichma-bosqich daromad yetishmovchiligini aniqlashga asoslangan yondashuvdan aholining real turmush sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy zaifligini kompleks baholashga asoslangan tizimga o‘tayotganini ko‘rsatadi. Mazkur jarayon xalqaro ilmiy adabiyotlarda shakllangan zamonaviy kambag‘allik konsepsiyasi bilan hamohangdir.

O‘zbekiston sharoitida ushbu nazariy yondashuvning amaliy ahamiyati ybir qancha yuqori. Chunki bir xil daromadga ega bo‘lgan ikki oilaning ijtimoiy holati bir-biridan sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Masalan, bir oilada mehnatga layoqatli va sog‘lom a’zolar ko‘p bo‘lsa, ikkinchi oilada nogironligi yoki surunkali kasalligi mavjud shaxs, ko‘p sonli farzandlar yoki uch

[4] Manba: https://president.uz/oz/lists/view/9575
[5] The United Nations in Uzbekistan “Common Country Analysis Uzbekistan” Conducted in August-November 2024

yoshgacha bo‘lgan bola bo‘lishi mumkin. Birinchi holatda mavjud daromad oilaning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘lsa, ikkinchi holatda tibbiy xizmat, parvarish, oziq-ovqat va boshqa xarajatlarning yuqoriligi sababli ayni daromad darajasi yetarli bo‘lmasligi mumkin. Demak, kambag‘allik chegarasini aniqlashda daromad miqdorini oilaning real ehtiyojlari va zaiflik omillari bilan bog‘lash zarur.

O‘zbekistonning pilot ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi natijalari ham ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Pilot tadqiqotda aholining sezilarli qismi bir vaqtning o‘zida bir nechta sohada mahrumliklarga duch kelishi aniqlangan. Xususan, sanitariya, bank xizmatlaridan foydalanish, ta’lim va yashash sharoitlari bilan bog‘liq mahrumliklarning mavjudligi kambag‘allikning iqtisodiy daromaddan tashqari ko‘plab omillar bilan shakllanishini ko‘rsatadi.

Bundan kelib chiqib, O‘zbekiston uchun ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksini mexanik tarzda boshqa davlat yoki xalqaro tashkilot metodologiyasidan ko‘chirib olish maqsadga muvofiq emas. Xalqaro metodologiya universal taqqoslash imkoniyatini bersa-da, milliy indeks mamlakatning o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va demografik sharoitlarini hisobga olishi lozim. Shu sababli O‘zbekiston uchun indikatorlar tizimini shakllantirishda xalqaro standartlar bilan bir qatorda milliy statistik ma’lumotlar, ijtimoiy himoya tizimi va mahalla darajasidagi ma’lumotlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan metodologiyaning yana bir muhim jihati - kambag‘allikni faqat aholi soni orqali emas, balki uning tarkibi va intensivligi orqali tahlil qilishdir. Oddiy kambag‘allik darajasi kambag‘al aholining umumiy ulushini ko‘rsatadi. Biroq u kambag‘allikning qanchalik chuqur ekanini yoki kambag‘al oilalarda nechta mahrumlik bir vaqtning o‘zida mavjudligini to‘liq ko‘rsatmaydi. Ko‘p o‘lchovli indeks esa aynan shu jihatni aniqlash imkonini beradi.

Bu yerda hududiy tahlil ham alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonning turli hududlarida kambag‘allikning darajasi bir-biridan farq qilishi bilan birga, uning sabablari ham turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun hududlarni faqat kambag‘allik darajasi bo‘yicha reyting qilish o‘rniga, ularning kambag‘allik profilini yaratish maqsadga muvofiq. Bunda har bir hududda kambag‘allikni shakllantirayotgan asosiy mahrumliklar aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlash va baholash tizimini takomillashtirishda ko‘p o‘lchovli yondashuvdan foydalanish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ekanligini ko‘rsatdi. So‘nggi yillarda kambag‘allik darajasining sezilarli pasayishiga qaramay, aholining ayrim qatlamlarida iqtisodiy daromad bilan to‘liq ifodalanmaydigan mahrumliklarning saqlanib qolishi kambag‘allikni baholash mezonlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Milliy statistika ma’lumotlarida kambag‘allik darajasining 2021-yildagi 17,0 foizdan 2025-yilda 5,8 foizgacha kamaygani ijobiy tendensiyani ifodalasa-da, bu ko‘rsatkich aholining barcha guruhlarida farovonlik darajasi bir xil yaxshilanganini anglatmaydi.

O‘zbekistonning ko‘p o‘lchovli kambag‘allik bo‘yicha pilot tadqiqoti ham mazkur yondashuvning milliy sharoitda amaliy ahamiyatini tasdiqladi. Pilot indeks natijalarida aholining sezilarli qismi bir vaqtning o‘zida bir nechta mahrumliklarga duch kelishi aniqlangan. Bu holat

monetar kambag‘allik ko‘rsatkichi bilan bir qatorda aholining yashash sharoiti va ijtimoiy imkoniyatlarini ham muntazam ravishda baholab borish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy xulosasi sifatida O‘zbekiston sharoitida monetar va ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni o‘zaro bog‘langan yagona tahliliy tizimda baholash maqsadga muvofiq, deb hisoblanadi. Bunda monetar kambag‘allik aholining iqtisodiy holatini aniqlashning asosiy mezoni sifatida saqlanadi, ko‘p o‘lchovli indikatorlar esa mazkur kambag‘allikning tarkibi, sabablari va intensivligini ochib beradi.

Shuningdek, kambag‘allikni aniqlash tizimida kambag‘allik va kambag‘allikka zaiflik tushunchalarini farqlash maqsadga muvofiq. Daromadi kambag‘allik chegarasidan past bo‘lgan uy xo‘jaligi amaldagi kambag‘allik guruhiga kiritilsa, daromadi chegaradan yuqori bo‘lsa-da, ishsizlik, nogironlik, surunkali kasallik, ko‘p bolalilik yoki boshqa jiddiy zaiflik omillariga ega oilalar alohida xavf guruhida baholanishi mumkin. Bu davlat tomonidan profilaktik ijtimoiy siyosat choralarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Tadqiqotda taklif etilgan integratsiyalashgan modelning asosiy amaliy ahamiyati shundaki, u kambag‘allikni aniqlash, uning tarkibini o‘rganish, hududiy va oilaviy xususiyatlarini belgilash hamda individual ijtimoiy-iqtisodiy choralarni ishlab chiqishni yagona tizimga birlashtiradi. Shu jihatdan, ko‘p o‘lchovli indikatorlar tizimini rivojlantirish O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish siyosatining ilmiy-statistik asoslarini mustahkamlash, davlat resurslarini manzilli yo‘naltirish va aholining barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2025). Kambag‘allik darajasi — SIAT. Rasmiy statistik ma’lumotlar bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025-yil 17-sentabr). 2030-yilga borib, O‘zbekistonda mutlaq kambag‘allikka to‘liq barham berish imkoniyati bor. “Kambag‘allikdan farovonlik sari” III xalqaro forumining ochilish marosimidagi nutq. Prezidentning rasmiy veb-sayti.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025-yil 17-sentabr). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” mavzusidagi III xalqaro forumning ochilish marosimida so‘zlagan nutqi. Prezidentning rasmiy veb-sayti.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2025-yil 19-noyabr). Kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab olindi. Prezidentning rasmiy veb-sayti.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026-yil 3-sentabr). Kambag‘allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha ishlar yangicha tashkil etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
6. United Nations Development Programme Uzbekistan. (2024). Infographics: Key Figures on Uzbekistan Pilot Multidimensional Poverty Index 2023. Mazkur material O‘zbekistonda kambag‘allikni bandlik, sog‘liq, ijtimoiy kapital, asosiy infratuzilma, yashash sharoitlari va moliyaviy inklyuziya kabi bir nechta yo‘nalishlar orqali baholashga qaratilgan.